

O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA INVESTITSION LOYIHA BOSHQARUVINI JORIY ETISH MEXANIZMLARINING TAHLILI

MURTOZAYEVA DINORA

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18713397>

Magistrlik dissertatsiyasiga annotatsiya. Mazkur tadqiqot ishimizda hududiy investitsiya dasturlarini amalga oshirishda investitsion loyiha boshqaruvining ilmiy-nazariy asoslari, uning rivojlanish jarayoniga qo'shayotgan hissi, afzalliklari va kamchiliklari, shuningdek, O'zbekiston va xalqaro tajribalarda investitsion loyiha boshqaruvini joriy etish holati tahlil qilindi. Hududlarni rivojlantirishda investitsion loyiha boshqaruvini amalga oshirishdagi mavjud to'siqlar va muammolar atroficha o'rganildi. Ushbu tadqiqot natijasida investitsion loyiha boshqaruvi tizimini samarali joriy etish bo'yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: investitsion loyiha boshqaruvi, hududlarni rivojlantirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, loyiha moliyalashtirish, strategik boshqaruv, xalqaro tajriba, rivojlanish loyihasi, iqtisodiy islohotlar, davlat-xususiy sherikchilik.

Abstract to the Master's dissertation. In this research, the theoretical foundations of project management in the socio-economic development of regions, its contribution to the development process, its advantages and disadvantages, as well as the current state of project management implementation in Uzbekistan and international experiences were analyzed. The existing obstacles and challenges in the implementation of project management for regional development were thoroughly examined. As a result of this research, scientific proposals and practical recommendations were developed for the effective implementation of the project management system.

Keywords: project management, regional development, socio-economic development, project financing, strategic management, international experience, development project, economic reforms, public-private partnership.

O'zbekiston hududlarida iqtisodiy va ijtimoiy loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda qator muammolar mavjud. Masalan, hududlarda moliyaviy resurslar yetarlicha emasligi, infrastrukturaning talab doirasida rivojlanmagani va kadrlar malakasining pastligi loyihalarning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Shu sababli, investitsion loyiha boshqaruvi mexanizmlarini joriy etish zarurati mavjud. Mazkur mexanizmlar orqali loyihalarning moliyalashtirilishi, risklarni boshqarish va resurslarni taqsimlash jarayonlari yaxshilanadi. Ayniqsa, xalqaro moliyaviy va texnologik resurslardan unumli foydalanish imkoniyatlarini oshirish uchun investitsion loyiha boshqaruvi tizimining amalda qo'llanilishi muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, xalqaro miqyosda sinovdan o'tgan usullarni tatbiq etish orqali O'zbekiston hududlarida loyihalarning natijaviyligini oshirish mumkin bo'ladi.

Tadqiqotimizning bosh maqsadi ham O'zbekiston hududlarida investitsion loyiha boshqaruvi mexanizmlarini joriy etish jarayonini tahlil qilish va ularning hududiy rivojlanishga qo'shadigan hissasini o'rganishda iborat. Magistrlik ishimizda investitsion loyiha boshqaruvi tamoyillari asosida hududiy loyihalarning iqtisodiy samaradorligini yaxshilash, risklarni kamaytirish va resurslarni maqsadli yo'naltirish kabi amaliyotlar ko'rib chiqiladi. Mavzuning ilmiy ahamiyati shundaki, u investitsion loyiha boshqaruvi tamoyillarini hududiy rivojlanishga tatbiq etishning nazariy va amaliy jihatlarini ochib beradi. Xususan, investitsion loyiha

boshqaruvi O'zbekistonning hududiy iqtisodiyoti uchun yangi va zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini joriy etishda ilmiy asoslangan dolzarb takliflarni ishlab chiqishga yordam beradi.


Tadqiqotda investitsion loyiha boshqaruvini joriy etishning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirini o'rganish uchun turli tahlil usullari qo'llanildi. Mazkur tadqiqot jarayonida empirik va nazariy usullar uyg'unlashgan bo'lib, hududiy loyihalar samaradorligini baholashda iqtisodiy-statistik tahlil, muqoyasa usuli, va risklarni baholash usullari qo'llanildi. Shu bilan birga, *Keys-stadi (case study)* usuli yordamida hududiy loyihalarning o'ziga xos jihatlari va xalqaro tajribalarni O'zbekiston sharoitida tatbiq etish imkoniyatlari o'rganildi. Metodologik yondashuv investitsion loyiha boshqaruvi mexanizmlarining O'zbekiston hududlarini rivojlantirishdagi o'rnini ilmiy asosda aniqlashga xizmat qiladi.

Investitsion loyiha boshqaruvi bu belgilangan maqsadlarga cheklangan vaqt, byudjet va resurslar doirasida erishishni ko'zlovchi murakkab boshqaruv jarayoni hisoblanadi. Ushbu yondashuv, ayniqsa, O'zbekiston hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsion loyiha boshqaruvi tamoyillari quyidagilardan iborat:

- ⇒ *Aniq maqsadga yo'naltirilganlik* ya'ni har bir loyiha aniq va o'lchanadigan maqsadlarga ega bo'lishi kerak.
- ⇒ *Cheklangan resurs va vaqtning samaradorligini ta'minlash*, aniqrog'i har bir loyiha uchun ajratilgan cheklangan resurslardan va vaqt oralig'idan optimal foydalanishni ta'minlash zarur.
- ⇒ *Risklarni boshqarish* tamoyili orqali esa loyihaning samaradorligini pasaytirishi mumkin bo'lgan xavf va muammoli holatlarni oldindan aniqlash va boshqarish lozim.

Mazkur tamoyillar loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirish va natijalarning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi.


Investitsion loyiha boshqaruvi jarayonida turli xil boshqaruv modellari va yondashuvlar qo'llaniladi:



4.2-rasm. Klassik boshqaruv modeli (Waterfall modeli)

*Klassik boshqaruv modeli (Waterfall modeli)*da loyiha bosqichma-bosqich amalga oshiriladi va har bir bosqich natijasi keyingi bosqichga asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonning ko'plab hududiy loyihalarida, masalan, infratuzilma loyihalarida bu model samarali hisoblanadi, chunki u qat'iy rejalashtirish va aniq tartib talab etadi.



4.3-rasm. Tezkor boshqaruv modeli (Agile modeli)

Tezkor boshqaruv modeli (Agile modeli) vaziyatga moslashuvchanlik va tezkorlikka asoslanib, murakkab yoki tez o'zgaruvchi sharoitlarda loyihalarni qisqa muddatli maqsadlarda amalga oshirishni ta'minlaydi. Texnologik yangilanish va zamonaviy dasturiy ta'minot loyihalarida keng qo'llaniladi.

Shu bilan birga *Gibrid modeli* esa klassik va tezkor boshqaruv modellari natijalarini mujassamlashtiradi va har bir loyihaning o'ziga xos ehtiyojlariga qarab tanlanadi. O'zbekistonda ba'zi qishloq xo'jaligi va sanoat loyihalarida ushbu yondashuv qo'llanilishi loyihalarining ko'p qirrali xarakterini hisobga olishda samarador bo'lmoqda.

Har bir modelning o'ziga xos afzallik va cheklovlari bor bo'lib, O'zbekiston hududiy rivojlanishida eng maqsadga muvofiq model tanlanishi lozim.

O'zbekistonning hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda investitsion loyiha boshqaruvining ahamiyati katta. Ushbu yondashuv hududiy resurslardan samarali foydalanish, yangi infratuzilmalar yaratish va aholi turmush darajasini yaxshilash uchun imkoniyat yaratadi. Investitsion loyiha boshqaruvi O'zbekistonda, ayniqsa, qishloq xo'jaligi, energetika va transport infratuzilmasi loyihalarida muvaffaqiyatli joriy etilmoqda. Davlat va xususiy sektor o'rtasida sheriklik munosabatlarini yaxshilash hamda investorlarni jalb etish orqali hududlarda iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish imkoni mavjud. Mazkur yondashuv shuningdek, O'zbekistonning turli hududlari o'rtasida iqtisodiy tenglikni ta'minlash va barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda ham yuqori ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tajribalar ko'rsatib turibdiki, investitsion loyiha boshqaruvining samarali tatbiqi mamlakatlar iqtisodiyotining turli sohalarida sezilarli natijalar beradi. Misol uchun, Xitoy Xalq

Respublikasi va Hindiston kabi davlatlar infratuzilma va energetika loyihalarida investitsion loyiha boshqaruvini qo'llab, tezkor iqtisodiy o'sishga erisha oldilar. Singapur va Janubiy Koreya davlatlari esa raqamli texnologiyalar asosida loyihalarni amalga oshirishda investitsion loyiha boshqaruvini rivojlantirish orqali zamonaviy innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga namuna ko'rsata oldilar. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ham barqaror rivojlanish loyihalari amalga oshirilayotganda investitsion loyiha boshqaruvidan keng foydalaniladi. Ta'kidlash joizki, O'zbekistonda bunday xalqaro tajribalarni tatbiq etish orqali hududiy loyihalarning natijadorligini oshirish mumkin.

Xalqaro tajribalarni joriy etish tufayli investitsion loyiha boshqaruvi tamoyillarini tatbiq etish O'zbekiston hududlarida loyihalarni samarali boshqarishga, moliyaviy va inson resurslaridan oqilona foydalanishga, shuningdek, iqtisodiy o'sish va rivojlanishni ta'minlashga yordam beradi.

O'zbekiston hududlarini rivojlantirish va investitsion loyiha boshqaruvini amalga oshirish uchun bir qator tashkilot va institutlar mas'ul hisoblanadi. Asosiy tashkilotlardan biri O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi bo'lib, u hududlarga investitsiyalar jalb qilish va loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun javobgardir. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy rivojlanish va kambag'allikni qisqartirish vazirligi ham mamlakatdagi iqtisodiy islohotlarni keng ommalashtirish va hududiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ijobiy faoliyat olib bormoqda.

Hududiy loyihalarni amaliyotga tadbiq etishda Innovatsion rivojlanish agentligi ham muhim tashkilot sanaladi. Agentlikning asosiy vazifalaridan biri hududiy loyihalarni rejalashtirish, amalga oshirish va uni nazorat qilish, shuningdek, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish natijasida hududlarga moliyaviy va texnik yordam ko'rsatishdan iborat. Mazkur institutlar tufayli davlat hududlarning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash va investitsion loyiha boshqaruvining samaradorligini oshirishga hissa qo'shadi.

O'zbekistonning turli hududlarida qator yirik loyihalar amalga oshirilib, ular hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Misol tariqasida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

Toshkent viloyatida sanoat va infratuzilma loyihalari amalga oshirilmoqda, shu jumladan yangi sanoat zonolari, yo'llar va elektr tarmoqlari qurilishi orqali iqtisodiy faollik oshmoqda.

Samarqand viloyatida turizm sohasidagi loyihalar rivojlanmoqda, buning natijasida mahalliy aholi uchun yangi ish o'rinlari yaratilib, hududning iqtisodiy salohiyati oshirilmoqda.

Buxoro viloyatida ham qishloq xo'jaligiga oid loyihalar orqali suv resurslarini boshqarish, zamonaviy sug'orish texnologiyalarini joriy etish orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi kengaytirilmoqda.

Andijon viloyatida esa kichik va o'rta darajadagi korxonalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan loyihalar amalga oshirilmoqda, bu esa tadbirkorlik faoliyatining kengayishiga va ish bilan ta'minlanish darajasining oshishiga imkon yaratmoqda.

Mazkur loyihalar hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonini tezlashtiradi va xalq farovonligini oshiradi. Ammo, loyiha samaradorligini yanada oshirish uchun ko'plab muammolarni hal qilish lozim.

O'zbekiston hududlarida loyihalarni amalga oshirishda turli xil muammo va to'siqlar mavjud. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

- ⇒ *Mablag' yetishmovchiligi:* Ko'plab loyihalar uchun mahalliy byudjet va resurslar yetarli bo'lmaydi, bu esa ularni amalga oshirish jarayonini qiyinlashtiradi.
- ⇒ *Kadrlar malakasi yetarli emasligi:* Hududlarda malakali mutaxassislar yetishmasligi, loyihalarni samarali rejalashtirish va boshqarishga ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, zamonaviy boshqaruv texnologiyalari bo'yicha tajriba kamligi loyihalarni amalga oshirishda to'siq bo'lib xizmat qiladi.
- ⇒ *Infratuzilma muammolari:* Ba'zi hududlarda asosiy infratuzilmaning rivojlanmaganligi loyihalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirishga to'sqinlik qiladi.
- ⇒ *Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik muammolari* ya'ni davlat va xususiy sektor o'rtasidagi ishonch va hamkorlikning zaifligi ham loyihalarni moliyaviy va texnik qo'llab-quvvatlashga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonning turli hududlarida loyihalarni amalga oshirish bo'yicha tahliliy tadqiqotlar (masalan: Toshkent, Samarqand, Buxoro, Andijon viloyatlari misolida):

Toshkent, Samarqand, Buxoro va Andijon viloyatlarida loyihalarning amalga oshirilishiga oid tahliliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, har bir hudud o'ziga xos iqtisodiy, ijtimoiy va resurs salohiyatiga ega. Masalan:

Toshkent viloyati texnologik taraqqiyot va sanoat loyihalariga e'tibor qaratmoqda, bu esa viloyatning yuqori darajadagi iqtisodiy faolligiga olib kelmoqda.

Samarqand viloyati o'zining tarixiy merosi va turizm salohiyati bilan ajralib turadi, bu esa uni xalqaro sayyohlik markaziga aylantirish imkonini beradi.

Buxoro viloyati qishloq xo'jaligi va tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha loyihalar orqali rivojlanmoqda.

Andijon viloyatida kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga yo'naltirilgan loyihalar iqtisodiy o'sish va yangi ishchi o'rinlarini yaratish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu hududiy tadqiqotlar O'zbekistonning turli viloyatlarida loyihalarni amalga oshirishning muvaffaqiyat omillarini aniqlashga yordam beradi va kelgusida investitsion loyiha boshqaruvining yanada samarali yo'lga qo'yilishiga imkon yaratadi.

Mahalliy kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish dasturlari hududlarda investitsion loyiha boshqaruvini kuchaytirish strategiyalarining muhim omili hisoblanadi. O'zbekistonda investitsion loyiha boshqaruvi bo'yicha malakali kadrlarni tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. 2022-yilda mamlakat bo'yicha qariyb 15 ming kadr yetishmovchiligi kuzatilgan, shundan 40% investitsion loyiha boshqaruvi sohasiga to'g'ri keladi. Kadrlar malakasini oshirish dasturlarini amalga oshirish uchun davlat byudjetidan yiliga taxminan 50 milliard so'm ajratilishi rejalashtirilgan. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda loyiha menejerlari uchun 200 dan ortiq treninglar va o'quv kurslarini tashkil etish orqali kadrlarning malakasini oshirish ko'zda tutilmoqda.

Shu bilan birga *davlat va xususiy sektor o'rtasidagi sherikchilikni kuchaytirish* masalasini ham ta'kidlash joiz. O'zbekiston DXSh loyihalari orqali qator sohalarda rivojlanishni qo'llab-quvvatlamokda. 2023-yilda DXSh doirasida qariyb 500 million AQSh dollari miqdoridagi investitsiyalar jalb qilingan, bu o'tgan yilga nisbatan 20% ga ko'proqdir. Ushbu loyihalar ko'proq transport, energetika va sog'liqni saqlash sohaslariga yo'naltirilgan. DXSh loyihalari doirasida qariyb 10 mingta yangi ish o'rinlari yaratilgan va mamlakatda iqtisodiy faollik oshgan.

O'zbekistonga moslashgan investitsion loyiha boshqaruvi metodologiyalarini tatbiq etish: O'zbekistonda investitsion loyiha boshqaruvining xalqaro standartlarini moslashtirish ishlari olib borilmoqda. Ushbu yondashuv natijasida 2022-yilda loyihalarni amalga oshirish samaradorligi 15% ga oshganligi qayd etilgan. Shu bilan birga, davlat sektorida loyiha boshqaruviga qaratilgan xarjlar 10% ga kamayib, resurslardan yanada unumli foydalanish ta'minlangan.

Moliya mexanizmlari xususida shuni ta'kidlash kerakki, hududiy loyihalar uchun mahalliy va xalqaro moliyaviy manbalarni jalb qilish alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda loyihalarni moliyalashtirish uchun milliy byudjetdan ajratiladigan mablag' 2023-yilda 7 trillion so'mga yetgan. Bundan tashqari, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kabi xalqaro moliya institutlari tomonidan qariyb 1,5 milliard AQSh dollari miqdorida kredit va grant mablag'lari ajratilgan. Yuqoridagi mablag'larning 60% qishloq xo'jaligi, energetika va infrastrukturaga yo'naltirilgan bo'lib, loyihalar hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Bringham E.F., Ehrhardt M.C. Financial management theory and practice. Thomson South-Western, 2008. 1107 p.
2. Hillier D., Grinblatt M., Titman Sh. Financial Markets and Corporate Strategy. London: McGraw-Hill Higher Education, 2012. 877 p.
3. Korso E. Inclusive growth analysis and HRV: A methodological note. 2011. Elektron manba: <http://siteresources.worldbank.org>
4. Landesmann, Michael Alroy (2000): Structural Change in the Transition Economies, 1989 to 1999. The Vienna Institute for International Economic Studies.
5. Modigliani F., Miller M. The Cost of Capital, Corporate Finance, and the Theory of Investment // American Economic Review, v. 48. (1958).
6. Modigliani F., Miller M. (1963) "Corporate Income Taxes and the Cost of Capital: A Correction" American Economic Review, Vol. 53, No. 3, pp. 147 – 175.
7. Peter Brusov, Tatiana Filatova, Natali Orehova, Nastia Brusova. Weighted average cost of capital in the theory of Modigliani-Miller, modified for a finite lifetime company // Applied Financial Economics, v. 21, № 4.